

**BIR QATOR SHE'R SHE'R BO'LA OLADIMI?***Hamroyeva Sadoqat Nurali qizi**ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti,**magistratura 1-kurs talabasi**Ilmiy rahbar: Hoshimjon Ahmedov f.f.n. dots.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Faxriyor she'riyatida ijodkorning faqat bir qator hajmga ega bo'lgan she'rlarini tahlil qilish asnosida ularning she'r bo'la olish yoki she'r talabalariga javob bera olishi yoki olmasligi o'rganiladi hamda shoirning poetik topilmalarini o'rganish orqali davr va shoir ijodida mavjud modernistik tajribalar, ya'ni qisqa she'rlar tahlilga tortiladi. Ushbu tadqiqotning yangi davr adabiyotshunosligi uchun muhim ekanligi izlanishlar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Faxriyor, Izlam, bir qator she'r, qofiya, modernistik tajriba.

**Annotation:** This article analyzes the poet Faxriyor's one-line poems to examine whether they qualify as poetry and meet poetic criteria. Additionally, through the study of the poet's poetic discoveries, modernist experiments specifically short poems in the era and the poet's work are scrutinized. The significance of this research for contemporary literary studies is evaluated based on investigations.

**Keywords:** Faxriyor, Izlam, one-line poem, rhyme, modernist experiment

**KIRISH**

“She'r deyilganda biz vaznga bo'ysundirilgan qofiya tizmasini tasavvur qilishga o'rganib qolganmiz. Shuning uchun qofiyasiz she'rlarni hamisha ham hazm qilavermaymiz: go'yo qofiyasiz yozayotganlar o'zini zamonaviy ko'rsatishga urinayotgan adabiy oliftalardek taassurot qoldiradi. Balkim, she'rda shakl va mazmun o'zgarishiga duch kelsak, darrov “modernist” degan “tamg'a” yopishtirishimizning sababi shundandir?! Umuman olganda, “modernist” bo'lish unchalik ham haqoratli maqom emas, lekin gap shundaki, burnining tagini emas, adabiyotni o'ylab yozayotgan ijodkor “modernist” bo'lish uchun yozmaydi, u shunchaki boshqalarga o'xshamaslik, o'zidan oldingilarni takrorlamaslik, milliy

adabiyotimizga yangi an'analar, adabiyotshunoslar ta'biri bilan aytganda, "priyomlar" olib kirish, dunyoni qaysi shaklda qabul qilsa, badiiy mushohadasi qanday bo'lsa, o'sha shaklda bayon qilish uchun yozadi. Vazn, qofiya va hokazo unsurlar she'rning faqat tashqi ko'rinishi, xolos. Qofiyaga moslashgan satrlar yig'indisi she'r bo'lib qolmaydi. Demak, she'r bo'lishi uchun yana boshqa narsalar kerak. Hechqursa, yangi tashbeh va yangi majoz kerak. Balkim, bunaqa ta'rif adabiyotshunoslik uchun biryoqlamadir, lekin men she'rni timsollar tilida gaplashish san'ati deb tushunaman"[6.]. Nazar Eshonqulning Faxriyor ijodi haqida aytgan yuqoridagi gaplarini keltirar ekanmiz, ijodkorning xuddi shunday modernistik tajribalariga alohida to'xtalib o'tishni maqsad qildik. Modernist shoir ijodida uchratishimiz mumkin bo'lgan yangiliklarni tahlil qilish adabiyotshunoslik uchun ham yangilik olib kirishga turtki bo'ladi degan umiddamiz.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Faxriyor ijodi hozirgi kunda qizg'in o'rganilayotgan mavzulardan biri bo'lib, asosan, Nazar Eshonqulning ijodkorning "Izlam" kitobiga oid "Izlash azobining totlari" [6.] hamda "Geometrik shoir yoxud avlodining avangard ijodkori ijodiga chizgilar" nomli maqolasi [7.], Sa'dulla Quronovning Faxriyor ijodida folklorizm [8.], Xurshid Davronning ijodiy suhbatlari [9.], Safarali Qurbonovning "An'anaviy adabiyot qoidalariga sig'maydigan shoir" [10.], Hoshimjon Ahmedovning "O'zbek she'riyatida yangicha uslub kashshofi" [ 11. ] va Shavkat Hasanovning "Haqiqatning yovshan islari" [12.] kabi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bundan tashqari, o'rganilmagan jihatlar hali ham mavjudligi tufayli ijodkor asarlarini o'rganishni davom ettirish niyatidamiz.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

She'riyatni ummon deyishadi, albatta, bu bejiz emas, chunki she'riyat ummonida turli-tuman yangiliklarni uchratishimiz mumkin. Faxriyor ijodi ham shu ummonga o'zgachalik va o'ziga xoslik olib kiradigan bir bo'g'in desak mubolag'a bo'lmaydi nazarimizda. Faxriyor ijodida uchraydigan boshqalarnikiga o'xshamaydigan shakl-u shamoyili turlicha bo'lgan she'riy qatralarni o'rganish

adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Shu o‘rinda Ulug‘bek Hamdamning “...Faxriyor she‘riyati biz ko‘nikkan an‘anaviy lirikamizga nisbatan g‘oyat original ko‘rinmasin, u ham o‘z an‘anasiga ega”[2. 154], degan so‘zlari o‘rinli. Shu sababli ijodkorning an‘anaviylik va originallik qorishib ketgan faqat bir qator hajmga ega bo‘lgan she‘rlarini tahlil qilish asnosida ularning she‘r bo‘la olish yoki she‘r talabalariga javob bera olishi yoki olmasligini o‘rganamiz.

Yuqoridagi aytganlarimiz singari bir qator she‘r bo‘lish uchun da‘vo qiluvchi satrlar Faxriyor ijodida talaygina:

*Ne-ne umidlarni boshga soladi*

*Bu hayot.*

*Daraxt bargi bilan yozar*

*Shukr oyatin*

*Gullar piyon bo‘lar.*

*Mazlum ko‘zyoshiday to‘xtamas oqim.*

*Tun kimning baxtiki bunchalar qaro*

*Erk*

*Dunyodagi eng jafokash so‘z*

*Yurak meni kechirar boshdan*

*Kelajakni yashab bo‘ldim men*

*Sen maqolning yugurdagisan*

*Sochimni so‘zlarning changiga belab*

*Vujudni choriqday sudrar sarkash ruh*

*Mening tushlaringga botdi muhabbat*

*Odamzor oralab borasan uchramaydi hech kim*

*Sanamning qoshiday quyuuq bir tuman*

*So‘z bo‘lib toshadi sabr kosasi [1. 248-249]*

Oy obrazi Faxriyor ijodida uchraydigan eng sermahsul detallardan biridir. Ayrim o‘rinlarda oy detal, ayrim o‘rinda esa obraz sifatida gavdalanadi.

“Faxriyor tashbihlarni atay izlab topadi, she’rlarida hech kimga o‘xshamaslikka, tasvir originalligi bilan boshqalardan farqlanib turishga intiladi va bunga mahorat bilan muvaffaq ham bo‘ladi” degan edi adabiyotshunos olim Muhayyo Yo‘ldosheva[3. 70]. Darhaqiqat shu fikrlar isbotini quyidagi satrda ko‘rishimiz mumkin.

**oyuzuk** [1. 282.]

Faxriyor she’riyatida o‘ziga xoslik deganda ko‘pincha qisqalik, qisqa so‘zlarda ma’no ifodalashni ko‘p uchratamiz. “oyuzuk” bitta so‘z, bitta she’r shunaqasi ham bo‘lishi mumkinmi? Bo‘lishi mumkin. Shoir ikki so‘z, oy va uzuk so‘zlaridan bir so‘z yasab, bir she’r yaratdi. Xo‘sh, bu she’rda qanday ma’no bor. Uzuk shakliga qarasa to‘lin oy shaklini ko‘ramiz, to‘lin oyga qarasa esa u ham uzuk shaklida. Uzuk qanday ma’no ifodalaydi? nega aynan oyuzuk, tilla uzuk, yoqut uzuk, kumush uzuk emas deganda shu fikrni ilgari sursak to‘g‘ri bo‘ladi, oy go‘zallikni ifodalaydi, uzuk o‘z o‘rnida nikoh, sadoqat ramzi bo‘lib qoladi, ushbu satrda oila ham, hayot ham oy singari go‘zal bo‘lishi kerak, oilalarda sadoqat bo‘lishi kerak, oying go‘zalligi uzukka ko‘chyaptimi demak oydek yuksak nikoh bo‘lishi kerak, unga atrofdagi muammolar chang solmasligi kerak, oy kabi yuksakda turmog‘i lozim, barmoqda yopishib turgani kabi oila ham mustahkam bo‘lishi lozim. Aks holda oila darz ketadi, jamiyat buziladi. Hayot o‘z ma’nosini yo‘qotadi. [13. 224] Dilmurod Quronov aytganidek, “Metafora davr o‘quvchisining didi va ma’rifiy darajasi, tafakkur tarziga mos bo‘lar ekan”[4. 279] . Xuddi shu tarzda bir satrda, bir so‘zda she’r yaratiladi.

**Suyak surar... taqdir ham** [1. 248]

Ushbu she’rda birinchi navbatda taqdir va suyak surmoq tushunchasiga bevosita izoh berib ketish o‘rinli, taqdir – 1. Oldindan belgilab qo‘yilgan, peshonaga bitilgan ko‘rgilik; yozmish, qismat. 2. Kelgusi hayot; kelajak, istiqbol. Suyak surmoq – ibora, biror bir kasallikning gen orqali boshqa avlod vakillariga ham o‘tib kelishi. She’rning tuzilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak unda o‘xshatish bor, tasviriy ifoda bor, ohang bor. Insonni fikrlashga undaydi, uni o‘yga toldiradi, demak

she'r bo'la oladi. Taqdirning takrorlanishini, inson o'zi harakat qilmasa, o'z hayotida o'zgarishlar yuz bermasligini, ertangi kunni o'zgartirishga harakat qilish kerakligini bir qator she'r orqali o'quvchiga yetkazib berish ancha mushkul ish, ammo shoir buni eplagan desak to'g'ri bo'ladi.

*Dan*

*Vaqt ayirar hamma narsa*

*Ni* [1. 248]

Vaqt, zamon va makon tushunchalari doim insonni chulg'ab turuvchi, hayotning qisqa ekanligini eslatib turuvchi tushunchalardir. Vaqt insonni sekin sekinlik bilan o'zidan ayira boshlaydi, bolalikni tortib oladi, yoshlikni tortib oladi, aksar holda g'am-anduh berib, vaqt o'tgan sari dardlarga davo ham bo'la oladi. Shoir aytganidek, vaqt hamma narsani hamma narsadan ayira oladi. Shu bir jumla bilan vaqt qadriga yetish kerakligi uqtiriladi. Bu ham she'rga yuklanadigan vazifani bajarilganidan dalolat, albatta. "Inson botinida yashirinib yoki e'tiborsiz yotgan kechinmalar, his-tuyg'ular, mayl va istaklar o'zlarida insonning asl mohiyati, ayniyati haqidagi barcha ma'lumotlarni to'plab yuradi. Bu ma'lumotlar ko'pincha ramz, timsol ko'rinishida tushda o'zini namoyon qiladi" degan edi Nazar Eshonqul. [5. 39] Shu so'zlar ham shoirning chinakam she'rni chegaralab bo'lmasligiga ishora qilganini isbotlaydi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ushbu she'rda shaklan ham yangilik yaratilgan.

*Armonlar zirqirar tish og'riqdayin...* [1. 248]

Dardning og'iri bu tish og'rig'i, degan gap bor. Shoir bekorga armon og'rig'ini unga o'xshatmaydi. Armon va orzu. Orzularning ushalmasligi bizda armonlarni paydo qiladi. U armonlar yillar o'tgan sari qalblarni tirnaydi, ammo bizda ularni yo'qotish imkoni qolmagan bo'ladi. Tish og'rig'i kabi tanamizda aqlimizda yuragimizda zirqirashlar paydo qiladi.

*It hurar, karvondan darak yo'q ammo...*[1. 248]

It hurar, karvon o'tar degan maqol bor xalqimizda. Siz biror ish qilmoqchi bo'lsangiz, sizga xalal beruvchi fikringizdan qaytarmoqchi bo'luvchilar, sizning

gʻoyalaringizni anglayolmaydiganlar topiladi. Maqolda shu nazarda tutiladi. Ammo bir savol tugʻiladi, yuqoridagi satrda shoir nima demoqchi? Balki ey odamzod sen bir ishga qoʻl ursang ham hattoki hech nima qilmasang ham seni tinch qoʻymaydiganlar topilishi mumkin demoqchidir. Yana boshqa bir tahlil ham boʻlishi mumkin karvon yuksalish, intilish maʼnosida boʻlsa, itning hurishi esa dushmanlar, hasadchilar ramzidir. Hasadchi, igʻvogar va yomon niyatli kishilar qancha urinmasin, yaxshi insonlar toʻgʻri yoʻldan qaytmaydi. Ammo karvon kelishini kutish kerak, sabr qilish faqat ortga qaytmaslik zarur.

### XULOSA

Shoir Faxriyor sheʼriyatida modernistik tajribalar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrganilishi zarur boʻlgan bir boʻgʻin deya olamiz. Shu asosda ijodkor yozgan bir qatorli sheʼrlar izlanishlar davomida bir-biriga oʻxshamagan misollar va oʻxshatishlar orqali asl maʼnoni ifodalash va insonni fikrlashga undovchi yashirin maʼnolarni tashishiga guvoh boʻldik va buni isbotlashga harakat qildik. Mavjud nazariy asoslar orqali tahlilga tortdik. Xulosa qilib aytganda, bir satrli sheʼr ham oʻzida yirik sheʼrlar tashiydigan maʼnoni tashiy olishiga shohid boʻldik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Faxriyor. Izlam. -Toshkent: Akademnashr NMM, 2023. B 448.
2. Ulugʻbek Hamdam. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm: Oʻquv qoʻllanma – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b.
3. Muhayyo Yoʻldosheva. Yangilanishlar manguligi: adabiy tadqiqotlar. –T.: ADIB nashriyoti, 2011. –88 b.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn]/ D. Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
5. Назар Эшонкул. “Ижод фалсафаси” (“Мендан менгача”). Т.: Академнашр. 2018. – 416 б.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/taqdimot/faxriyor-izlam-kitobidan-sherlar-nazar-eshonqul-izlash-azobining-totlari.html>
7. <https://oyina.uz/uz/article/2059>
8. <https://quronov.narod.ru/smaqk5.html>
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/firuza-boriyeva-faxriyor-sheriyatida-anana-novatorlik-modernizm.html>
10. <https://oyina.uz/uz/article/2095>
11. <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/download/296/346/1212>

<https://conferencea.org>

12. <https://www.samdu.uz/uz/news/47195>

13. Sadoqat Hamroyeva. Faxriyor she'rlarida oynoma. –Toshkent: Til va adabiyot jurnali 21-son. 2024. – 254 b.

